



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No 7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 356 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabihev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarcand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahriri yati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'inining birinchi

o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O' – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361



MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari | 16 |
| Doniyorov Salim Musurmonovich | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish..... | 23 |
| Nazarov Odil Omanqulovich | |
| "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni | 27 |
| Abirova Umida Nazarovna | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati | 30 |
| Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li | |
| Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari | 34 |
| Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna | |
| Maktabgacha ta'lrim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda | |
| ta'limi o'yinlarning ahamiyati | 38 |
| Salimova Dilmira Farxodovna | |
| Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar | 41 |
| Rajabov Asliddin Xolmirzayevich | |
| Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati..... | 44 |
| Boltayev Baxtiyor Yunusovich | |
| Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar | 48 |
| E. Po'latova | |
| Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ... | 51 |
| Egamova Ravshanoy Surobjonovna | |
| O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? | |
| Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar..... | 55 |
| G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li | |
| Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi | 60 |
| Isayeva Mushtari Alisher qizi | |
| Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons | 63 |
| Mavlonova Dildora Shuxrat qizi | |
| Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish | 67 |
| Nomozova Dilobar Suyun qizi | |
| Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini | |
| shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar | 72 |
| Norboyeva Moxigul Shavkat qizi | |
| 3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories | 75 |
| Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li | |
| Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: | |
| a Review of Recent Literature | 80 |
| Ruzieva Maftuna | |
| Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga | |
| qiziqishni oshirishning nazariy asoslari..... | 85 |
| Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna | |
| Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun | |
| "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida) | 88 |
| Sharipova Hakima Shavkatovna | |
| Metacognition and Self-Regulated Learning | 92 |
| Turayeva Nazira Ibragimovna | |
| Mетодические возможности совершенствования обучения научной | |
| письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода | 95 |
| Меденцева Наталья Петровна | |
| Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari | |
| raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari | 100 |
| Jonibekov Jasur Jonibekovich | |



| | |
|---|-----|
| O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi..... | 105 |
| Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi | |
| Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi..... | 108 |
| Bakayev Najmiddin | |
| Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida | 112 |
| Egamova Madina Qobil qizi | |
| Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari..... | 116 |
| Egamova Shukriya Amanova | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari | 119 |
| G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi | |
| Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish | 124 |
| G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich | |
| Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari | 128 |
| Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna | |
| Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari..... | 131 |
| Ikromova Munisa Sheraliyevna | |
| Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari | 134 |
| Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna | |
| Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar | 138 |
| Jumanova Iroda Shokirjon qizi | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish | 141 |
| Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna | |
| Talabalarda nutqiylarini shakllantirish texnologiyasi | 145 |
| Kiyamova Maxbuba Sultanovna | |
| Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari..... | 148 |
| Mamadiyorov Jamol | |
| Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari..... | 152 |
| Sharipova Firuza Mehriddinovna | |
| Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli | 155 |
| Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li | |
| Maktabgacha ta'lilda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida..... | 159 |
| Xallokova Maksudaxon Ergasheva | |
| Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari..... | 162 |
| Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna | |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi | 166 |
| Xudoberganova Matluba Quisoxatovna | |
| Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzallikkleri..... | 170 |
| Yodgorova Gulrux Farhodovna | |
| Совершенствование методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования..... | 174 |
| Юлдашев Эргаш Сабирович | |
| O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati | 177 |
| Kudenov Temurbek Maxsetbaevich | |
| Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida | 180 |
| Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna | |
| Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar | 185 |
| Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi | |
| The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes | 189 |
| Meliboyev Zuxriddin Isroiil ugli | |



| | |
|--|-----|
| O'zbekistani tarixi darslari pedagogik improvisatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari | 192 |
| Ergasheva Muhayyoxon G'anjonovna | |
| Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi..... | 196 |
| Arslanova Umidaxon Komiljon qizi | |
| Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik | 201 |
| Adilova Zulfiya Djavdatovna | |
| Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni | 204 |
| Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi | |
| The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach | 207 |
| Abdulkhalilova Feruzakhon Ulugbek kizi | |
| Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati..... | 210 |
| Abdullahayeva Ugiloy Djurayevna | |
| Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti | 214 |
| Aripova Sayida Abdulaxatovna | |
| Raqamli etiket: zamonaviy ta'lilda yangi madaniyat talabi | 217 |
| Rasuljon Atamuratov | |
| Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi..... | 221 |
| Azizova Shodiya Utkur qizi | |
| Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari | 224 |
| Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna | |
| O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash..... | 228 |
| Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li | |
| Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar | 232 |
| Ochilova Sarvinoz Salim qizi | |
| Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari | 236 |
| Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi | |
| Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari..... | 239 |
| Risvayeva Charos Zaydilla qizi | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriquqlarning samaradorligi..... | 242 |
| Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon | |
| Bo'lajak o'qituvchillarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli | 245 |
| Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi | |
| Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni | 248 |
| Umirova Gul'dona Jamoliddin qizi | |
| Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choraları | 251 |
| Ungalov Akmal Navruzovich | |
| Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi | 254 |
| Xabirova Zulfiya Anvarbekovna | |
| Talabalar ijtimoiy faoliyk indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati | 257 |
| Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li | |
| Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'larning ahamiyati..... | 260 |
| Yuldasheva Mastura Islamovna | |
| Пословицы и поговорки как отражение картины мира | 263 |
| Алламбергенова Шахноза Садатдиновна | |
| Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni | 268 |
| Abdumannopov Muhammadsohib Muhammadyusuf o'g'li | |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar..... | 272 |
| Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna | |



| | |
|---|-----|
| Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish..... | 277 |
| Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi | |
| Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari | 280 |
| O'rinovala Nilufar Muhammadovna | |
| Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiylar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi..... | 286 |
| Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li | |
| Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida..... | 290 |
| Tugalova Madina Erkin qizi | |
| Ilk mакtabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya..... | 293 |
| Umarova Muyassarxon A'замjonovna | |
| Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari | 297 |
| Xanova Dilrabo | |
| Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies | 303 |
| Kholidova Lutfiya Umurzoqovna | |
| Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini o'qitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli | 306 |
| Ametova Guljamilya Elbrusovna | |
| Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish | 310 |
| Baydjanov Bekzod Xaitboyevich | |
| Aksiologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati..... | 314 |
| Choriyeva Feruza Amrullayevna | |
| Ibrayim Yusupovning "Sakssovul" she'rini o'qitish metodikasi | 317 |
| Darmenov Allayar Abdilxaq uli | |
| Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.... | 320 |
| Ergasheva Anbar Shaymardan qizi | |
| Oiladagi zo'ravonlik: sababları, oqibatlari va psixologik yondashuvlar | 324 |
| Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi | |
| Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari..... | 329 |
| Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi | |
| Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish | 334 |
| Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li | |
| Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar ... | 339 |
| Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi | |
| Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini | 346 |
| Saotmuratova Zebo Yuldash qizi | |
| OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari..... | 350 |
| Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi | |

OILADAGI ZO'RAVONLIK: SABABLARI, OQIBATLARI VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi

Alfraganus universiteti Pedagogika kafedrası

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola oilaviy muhitda sodir bo'layotgan zo'ravonlik holatlarini chuqr psixologik tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda zo'ravonlikning asosiy turlari – jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy shakllari alohida ko'rib chiqiladi. Har bir tur o'ziga xos ifoda shakllari va jamiyatga yetkazadigan salbiy oqibatlari bilan ajralib turadi. Maqolada zo'ravonlikning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy, madaniy, shaxsiy va psixologik omillar kompleks tarzda yoritilgan. Xususan, oiladagi notinch muhit, o'zaro ishonchning yo'qligi, alkogol va giyohvandlik vositalarining haddan tashqari iste'moli, bolalikda o'tkazilgan travmatik tajribalar va gender tengsizligi kabi omillar doimiy zo'ravonlik holatlariga olib kelishi mumkinligi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada oilaviy zo'ravonlikning individual va ijtimoiy oqibatlariga ham chuqr e'tibor qaratiladi. Jabrlanuvchilarda uchraydigan depressiya, xavotir, psixologik izolyatsiya, o'z-o'zini past baholash kabi holatlar bilan birga, bolalar ruhiyatida yuzaga keladigan xavfli sindromlar, ularning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir va tajovuzkorlik xatti-harakatlarining shakllanishi keng yoritilgan. Maqolaning muhim jihatlaridan biri – muammoni hal etishga qaratilgan zamonaviy psixologik yondashuvlar tahlilidir. Jumladan, kognitiv-hulqiy terapiya, oilaviy psixoterapiya, psiko-ta'limiy das-turlar va reabilitatsiya markazlari faoliyati haqida aniq tavsiyalar keltirilgan. Mazkur yondashuvlar jabrlanuvchilarni ruhiy tiklash, zo'ravon shaxslarning agressiyasini boshqarish, oilaviy muloqotni tiklash va sog'lom munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, oiladagi zo'ravonlikni bartaraf etishda faqat huquqiy choralar emas, balki keng qamrovli psixologik va ijtimoiy yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun maqolada oilaviy tinchlikni mustahkamlashda ilmiy asoslangan, barqaror va insoniy qadriyatlarga tayanadigan yondashuvlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Oiladagi zo'ravonlik, jismoniy va ruhiy tazyiq, psixologik yordam, kognitiv-hulqiy terapiya, oilaviy psixoterapiya, gender tenglik, ijtimoiy profilaktika, zo'ravonlik oqibatlari, reabilitatsiya markazlari, huquqiy himoya.

Abstract: This article provides an in-depth psychological analysis of domestic violence within family environments. It examines the main types of abuse – physical, emotional, sexual, and economic – and outlines their specific manifestations and harmful impacts on individuals and society. The paper explores the complex causes of domestic violence, including social, cultural, psychological, and personal factors. Issues such as family dysfunction, lack of mutual trust, substance abuse, childhood trauma, and gender inequality are highlighted as key contributors to violent behavior. Special attention is given to the individual and social consequences of abuse, such as depression, anxiety, isolation, low self-esteem among victims, and emotional instability or aggressive behavior in children exposed to violence. The article also evaluates effective psychological approaches for addressing the problem, including Cognitive Behavioral Therapy (CBT), family therapy, psycho-educational programs, and the role of rehabilitation centers. Findings emphasize that combating domestic violence requires not only legal measures but also comprehensive psychological and social interventions. The article concludes by offering scientifically grounded strategies aimed at restoring healthy communication, supporting victims, and fostering a peaceful family environment.

Key words: Domestic violence, physical and psychological abuse, psychological support, cognitive-behavioral therapy, family psychotherapy, gender equality, social prevention, consequences of violence, rehabilitation centers, legal protection.



Аннотация: В данной статье проводится глубокий психологический анализ проблемы насилия в семье. Рассматриваются основные формы насилия – физическое, психологическое, сексуальное и экономическое – с описанием их проявлений и негативных последствий как для личности, так и для общества. Освещаются социальные, культурные, психологические и индивидуальные причины насильственного поведения. К числу ключевых факторов относятся: неблагополучная семейная обстановка, отсутствие доверия, злоупотребление алкоголем или наркотиками, детские травмы и гендерное неравенство. Особое внимание уделяется последствиям насилия: у жертв могут развиваться депрессия, тревожные расстройства, изоляция, заниженная самооценка, а у детей – эмоциональная нестабильность и склонность к агрессии. В статье также рассматриваются эффективные психологические методы помощи, в том числе когнитивно-поведенческая терапия, семейная психотерапия, психопросветительские программы, а также роль реабилитационных центров. Результаты исследования показывают, что борьба с домашним насилием требует не только правовых, но и целенаправленных психологических и социальных подходов. В завершение статьи предложены научно обоснованные стратегии по восстановлению здоровых отношений в семье, поддержке жертв и укреплению мирного семейного климата.

Ключевые слова: Домашнее насилие, физическое и психологическое давление, психологическая помощь, когнитивно-поведенческая терапия, семейная психотерапия, гендерное равенство, социальная профилактика, последствия насилия, реабилитационные центры, правовая защита.

KIRISH

Oila – inson hayotidagi eng muhim ijtimoiy muhit, shaxsiyat shakllanishining beshigidir. U nafaqat hayotning biologik davomiyligini, balki ma'naviy qadriyatlar, axloqiy normalar va ruhiy barqarorlikni avlodlarga yetkazishda hal qiluvchi o'r'in tutadi. Odatda oila a'zolari o'tasida o'zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va ishonch asosiy tamoyillar sifatida qaraladi. Biroq, hayotiy haqiqatlar shuni ko'rsatmoqdaki, ba'zida aynan shu muhit ichida inson huquqlari poymol qilinib, zo'ravonlik holatlari yuzaga chiqadi. Oiladagi zo'ravonlik – bu nafaqat jismoniy zarar yetkazish, balki ruhiy tahdid, jinsiy majburiylik, iqtisodiy bosim yoki shaxsiy erkinlikni cheklash kabi ko'rinishlarda ham namoyon bo'ladigan murakkab ijtimoiy-psixologik muammo hisoblanadi. Bunday zo'ravonlik ko'pincha ko'zga ko'rinas tarzda kechadi, biroq uning salbiy oqibatlari chuqur ildiz otib, oilaviy muhitni izdan chiqaradi. Bu holat o'z navbatida jamiyatdagi ruhiy salomatlik, farzandlar tarbiyasi va ijtimoiy barqarorlikka tahdid soladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dunyo tajribasi va O'zbekiston sharoitida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, oiladagi zo'ravonlikka duchor bo'lgan ayollar va bolalar ko'pincha sukunatni tanlashadi, o'z huquqlarini himoya qila olmaydilar yoki yordam so'rashdan qo'rqaqilar. Statistik ma'lumotlar zo'ravonlik holatlarining katta qismi huquq-tartibot organlariga yetib bormasligini, jamiyat esa bu holatlarga befarqliq bilan qarayotganini ko'rsatadi. Bu esa muammoning nafaqat mavjudligi, balki uning ildizlari chuqurroq ekanini anglatadi. Shu sababli, ushbu maqola doirasida oiladagi zo'ravonlik holatlarining asosiy turlari, ularning kelib chiqish omillari, psixologik va ijtimoiy oqibatlari keng tahlil qilinadi. Ayniqsa, bu muammoni bartaraf etishda zamonaviy psixologik yondashuvlarning, xususan, kognitiv-hulqiy terapiya, oilaviy psixoterapiya va psixologik reabilitatsiya dasturlarining roli chuqur o'rganiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi – oila a'zolari o'tasida sog'lom, zo'ravonlikdan holi, hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlar madaniyatini shakllantirishga ilmiy va amaliy asos yaratishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oilaviy zo'ravonlik murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, u nafaqat jismoniy zo'ravonlik, balki ruhiy, jinsiy va iqtisodiy tazyiqlar shaklida ham namoyon bo'ladi. Bu zo'ravonlik shakllari ko'pincha bir-biriga bog'liq bo'lib, ko'p hollarda bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Quyida ularning asosiy turlari batafsil bayon etiladi:

- Jismoniy zo'ravonlik** – eng ko'zga ko'rinaldigan va tez-tez uchraydigan zo'ravonlik shaklidir. Bu turli darajadagi tan jarohatlarini yetkazish orqali amalga oshadi: urish, turtish, itarish, sochdan tortish, mushtlash, oyoq bilan tepish, kesish yoki issiq suyuqlik bilan kuydirish kabi holatlar bunga misol bo'la oladi. Ba'zida bu harakatlar o'lim bilan ham yakunlanishi mumkin. Jismoniy zo'ravonlik oilaning ishonchga asoslangan muhitini buzib, barcha a'zolarda qo'rquv va xavotir uyg'otadi.
- Psixologik zo'ravonlik** – tashqi jismoniy belgilar bilan emas, balki ichki ruhiy jarohatlar bilan tavsiflanadi. Bu holat doimiy haqorat qilish, tanqid qilish, mensimaslik, tahdid solish, do'stlar va yaqinlardan ajratish, yolg'izlikka majbur qilish, manipulyatsiya, shaxsni befoyda yoki qadrsizdek his qilish kabi harakatlar orqali



yuzaga chiqadi. Bu turdag'i tazyiq insonning o'ziga bo'lgan ishonchini, hayotga bo'lgan qiziqishini yo'qotadi, ruhiy tushkunlik, xavotir va depressiyaga olib keladi. O'zini aybdor his qilish sindromi, doimiy qo'rquv va tashvish holatlari psixologik zo'ravonlikning eng og'ir oqibatlaridandir.

3. **Jinsiy zo'ravonlik** – oilaviy munosabatlarda ko'pincha yashirin shaklda uchraydigan zo'ravonlik turidir. U jabrlanuvchining roziligidiz jinsiy aloqaga majburlash, tahdid qilish yoki jinsiy jihatdan kamsitish, befarqlik, jinsiy ehtiyojlarni manipulyatsiya vositasi sifatida ishlatish orqali sodir bo'ladi. Ko'plab holatlarda bu zo'ravonlik erkak turmush o'rtoqlari tomonidan amalga oshiriladi va ayollar bu haqda gapirishdan uyaladilar yoki qo'rqaqilar. Natijada, insonning shaxsiy erkinligi buziladi, psixologik va jinsiy salomatlik izdan chiqadi.
4. **Iqtisodiy zo'ravonlik** – kamroq e'tibor qaratiladigan, biroq juda keng tarqalgan zo'ravonlik shaklidir. Bu moliyaviy mustaqillikni cheklash, oila byudjetini to'liq nazorat qilish, ishlash yoki pul topish imkoniyatini bermaslik, bank kartalarini olib qo'yish, doimiy hisob-kitobga tutish, hatto kerakli narsalarni sotib olish huquqidan mahrum qilish orqali amalga oshadi. Bu turdag'i zo'ravonlik jabrlanuvchini iqtisodiy jihatdan bog'lab qo'yadi va uning o'z hayotini nazorat qilish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Natijada, shaxs o'zini qaram va ojiz his qilgan holatda yashashga majbur bo'ladi.

Bu zo'ravonlik shakllarining har biri bevosita yoki bilvosita oilaning barcha a'zolariga, ayniqsa, ayollar va bolalarga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar bu kabi muhitda ulg'ayib, zo'ravonlikni "me'yoriy" holat deb qabul qilishi mumkin. Bu esa keyingi avlodlarda ham shunga o'xshash xatti-harakatlar takrorlanishiga olib keladi. Shu sababli, oiladagi zo'ravonlikni har qanday ko'rinishda tan olish, aniqlash va unga qarshi kurashish zarur. Bu borada ham huquqiy, ham psixologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oilaviy zo'ravonlik tasodifan yuzaga keladigan holat emas. Bu holat ko'pincha bir nechta omillarning o'zaro ta'siri, insoniy munosabatlardagi muvozanat buzilishi va jamiyatdag'i ijtimoiy-tarixiy sharoitlar natijasida vujudga keladi. Zo'ravonlikka olib keluvchi asosiy sabablar orasida shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, gender stereotiplari, alkogol va psixoaktiv moddalar ta'siri, shuningdek, huquqiy va ma'naviy savodsizlik kabi omillar alohida o'r'in tutadi. Shaxsiy omillar jumlasidan, zo'ravon shaxslarning psixologik xususiyatlari ularning oilaviy munosabatlarda tajovuzkorlikka moyilligini belgilaydi. O'z-o'zini past baholovchi, o'zini kamsitilgan yoki ojiz his qilgan shaxslar ko'pincha o'z ustunligini kuch ishlatish orqali namoyon qilishga harakat qiladilar. Agressiv xarakter, g'azabni boshqara olmaslik, portlovchi kayfiyat va impulsivlik zo'ravonlik xatti-harakatlariga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, bolaligida o'z yaqinlardan zo'ravonlik ko'rgan shaxslar bu modelni odatiy munosabat shakli sifatida qabul qilib, kattalikka yetganida ham xuddi shunday munosabatlarni davom ettiradi. Bu holat "uzluksiz zo'ravonlik aylanishi" deb nomlanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham zo'ravonlikning kuchayishiga olib keladi. Jumladan, ishsizlik, moliyaviy tangliklar, qarzlar, og'ir yashash sharoitlari va turmush tarzidagi boshqa qiyinchiliklar stress va nizolarning kuchayishiga sabab bo'ladi. Bunday sharoitda oila a'zolari o'zaro murosaga kelish o'rniiga zo'ravonlikka murojaat qilishi. Shuningdek, madaniy va gender stereotiplari ham bu muammoning ildizida yotadi. Ba'zi jamiyatlarda erkakning ustunligini tabiiy deb bilish, ayol esa itoatkor bo'lishi kerak degan patriarxal qarashlar zo'ravonlikni yashirin me'yor sifatida qabul qilishga olib keladi. Ayollarning jamiyatdag'i ijtimoiy mavqeini pasaytirish, ularni ishga chiqish yoki o'qish imkoniyatlaridan cheklash orqali iqtisodiy va psixologik jihatdan qaram holga keltirish ham ko'plab zo'ravonlik holatlarining omiliga aylanadi. Zo'ravonlikka nisbatan murosali munosabat, ya'ni "bu oilaviy ish", "sabrsiz ayol ajrashadi", "yaxshi ayol indamaydi" kabi iboralar esa jabrlanuvchini jim turishga va holatni yashirishga majbur qiladi. Bunday tashqari, alkogol va giyohvandlik vositalarining haddan ortiq iste'moli ham oilaviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mast holatdag'i inson o'z his-tuyg'ularini va harakatlarini nazorat qila olmaydi, bu esa tajovuzkorlikka olib keladi. Ko'plab hollarda ichkilikbozlik zo'ravonlikni oglash vositasi sifatida ishlatiladi. Bunday muhitda o'sib ulg'aygan bolalarda esa jiddiy psixologik muammolar paydo bo'lishi mumkin. Nihoyat, ma'naviy va huquqiy savodsizlik ham muammoning davom etishiga sabab bo'ladi. Ko'plab insonlar o'z huquqlarini bilmaydi yoki ularni qanday himoya qilishni tushunmaydi. Psixologik savodsizlik tufayli zo'ravonlikning o'zi tan olinmaydi, uni "janjal", "oilaviy kelishmovchilik" deb baholash hollari uchraydi. Jamiyat tomonidan befarqlik bilan qaralishi, ya'ni qo'shnilar, qarindoshlar yoki hatto davlat idoralari tomonidan e'tiborsizlik qilinishi esa zo'ravonlik holatlarini yanada kuchaytiradi va davomiyligiga sabab bo'ladi. Xulosa shuki, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashishda kompleks yondashuv talab etiladi – bu esa huquqiy bilim, psixologik yordam, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi va madaniy ongni yuksaltirish orqali amalga oshirilishi kerak.

Oilaviy zo'ravonlik nafaqat uni boshdan kechirayotgan shaxsga, balki butun oila a'zolari, ayniqsa, farzandlar va jamiyatning umumiyligi ruhiy sog'ligiga ham chuqur ta'sir ko'rsatadi. Bu salbiy oqibatlar qisqa muddatli emas,

balki ko'pincha uzoq davom etuvchi psixologik, ijtimoiy va jismoniy izlar qoldiradi. Zo'ravonlikning ta'sir doirasi ikki asosiy darajada – shaxsiy va ijtimoiy miqyosda namoyon bo'ladi. Shaxsiy darajada psixologik salomatlikning buzilishi kuzatiladi. Zo'ravonlikka uchragan shaxsda o'ziga bo'lgan ishonch pasayadi, hissiy notinchlik kuchayadi. Uzoq davom etgan ruhiy zo'ravonlik kronik stress (doimiy xavotir, asabiy holat, uyqusizlik, charchoq), depressiya (qiziqishning yo'qolishi, umidsizlik, ijtimoiy izolyatsiya), tashvishli buzilishlar (xavotirli o'ylar, vahima xurujlari, ichki qo'rquv) hamda o'z joniga qasd qilish xavfi kabi og'ir holatlarga olib kelishi mumkin. Jismoniy salomatlikka ta'siri ham yengil bo'lmaydi – zo'ravonlik tanaga shikast yetkazishi, doimiy og'riq, bosh og'riq'i, yurak urishining tezlashishi, oshqozon-ichak muammolari kabi psixosomatik alomatlarga sabab bo'ladi. Jinsiy zo'ravonlik esa ayollarda reproduktiv salomatlik bilan bog'liq muammolarni, masalan, homiladorlikdagi xavf, infeksiyalar va jinsiy sovuqlikni keltirib chiqaradi. Bolalar ham bu holatdan jiddiy zarar ko'radi.

Oilada doimiy zo'ravonlik guvohi bo'lib ulg'aygan bolalar ruhiy va ijtimoiy jihatdan og'ir jarayonlarni boshdan kechiradilar: agressivlik yoki haddan tashqari uyatchanlik, nutq va rivojlanishdagi kechikishlar, o'qishga qiziqmaslik, ijtimoiy moslashuv muammolari, shuningdek, zo'ravonlikni "normal" holat deb qabul qilish va keyin-chalik uni takrorlash xavfi mavjud. Bu holatlar bolaning shaxsiy va ijtimoiy faoliyatini butun hayoti davomida izdan chiqarishi mumkin. Jamiat mifqosida esa zo'ravonlikning oqibatlari oila institutining yemirilishida, tarbiya tizimining buzilishida, sog'lom ijtimoiylashuvning to'xtashida, qo'llab-quvvatlash tizimining yo'qolishida namoyon bo'ladi. Zo'ravonlikni me'yor sifatida qabul qilgan bolalar voyaga yetgach, o'z oilasida ham ayni modelni takrorlashga moyil bo'lishadi. Bu esa "zo'ravonlik avlod"ning shakllanishiga olib keladi. Natijada jamiyatda zo'ravonlikka nisbatan bag'rikenglik kuchayadi, huquqiy va axloqiy qadriyatlar inqirozga uchraydi. Zo'ravonlik jamiyat uchun katta iqtisodiy va ijtimoiy xarajatlarga sabab bo'ladi: jabrlanuvchilar sog'liqni saqlash, reabilitatsiya va ijtimoiy yordam xizmatlariga murojaat qiladi, ish unumdonligi pasayadi, mehnatga layoqat yo'qoladi, bu esa makroiqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammoni hal etishda faqat jazolovchi va huquqiy choralar yetarli emas. Zo'ravonlikka qarshi kurashda psixologik, pedagogik, madaniy va ijtimoiy yondashuvlarni birgalikda qo'llash zarur. Ayniqsa, zo'ravonlik sodir etgan yoki zo'ravonlikka uchragan shaxslar bilan individual va guruh shaklidagi psixologik ishlovlar muhim ahamiyatga ega.

Kognitiv-hulqiy terapiya orqali zo'ravon shaxslarning ichki dunyosidagi noto'g'ri e'tiqodlar, salbiy fikrlar aniqlanadi va ular ijobji fikrlash tizimiga yo'naltiriladi. Bu terapiya avtomatik fikrlarni (masalan: "Men uni bosh-qarishim kerak", "Agar Jim bo'lmasa, urishga haqliman") tan olishga va ularga muqobil yondashuv topishga yordam beradi. Jabrlanuvchilar esa o'z-o'zini qadralash, ruhiy chegaralarni belgilash, sog'lom fikrlashni shakllantirish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Oilaviy psixoterapiya esa oilaning ichki muammolarini chuqur tahlil qilishga, har bir a'zoning fikrini tinglash va tushunishga, qarama-qarshiliklarni tinch va konstruktiv hal qilishga yo'naltirilan. Bu yondashuv oilada o'zaro hurmat, ishonch va hamkorlik muhitini tiklashda muhim vosita hisoblanadi.

Psiko-ta'limi dasturlar jamiyat a'zolarining ongini o'zgartirishga, zo'ravonlikni erta aniqlash, oldini olish va unga munosabat bildirish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Gender tengligi va inson huquqlari haqida tushunchalar mustahkamlanadi. Ota-onalar va o'quvchilar uchun seminar-treninglar orqali oiladagi sog'lom muloqot, farzand tarbiysi, hissiy nazorat, muammoli vaziyatlarni hal etish usullari o'rgatiladi. Er-xotinlar, o'smirlar, pedagoglar va mahalla faollari bilan individual yoki guruhli ishlovlar amalga oshiriladi. Bu dasturlar orqali jamiyatda zo'ravonlikka nisbatan "nol toqat" pozitsiyasi shakllanadi. Zo'ravonlikdan aziyat chekkan shaxslar ko'pincha ruhiy jarohatlar bilan birga huquqiy va ijtimoiy qiyinchiliklarga ham duch kelishadi. Shunday holatlarda:

- psixologik maslahatlar – jabrlanuvchiga o'z holatini anglab, undan chiqish yo'lini topishga yordam beradi;
- huquqiy yordam – himoya orderi olish, sudga murojaat qilish, vaqtincha boshpana bilan ta'minlash;
- reabilitatsion xizmatlar – stressdan chiqish, mustaqillikka qaytish va yangi hayot boshlash uchun yo'il-yo'riq ko'rsatish.

Mazkur markazlar davlat, nodavlat va xalqaro tashkilotlar hamkorligida faoliyat yuritishi mumkin. Zo'ravonlikka qarshi kurashda butun jamiyat faolligi muhim ahamiyatga ega. Bu borada:

- maktablarda bolalar bilan tarbiyaviy suhbatlar, zo'ravonlikka qarshi sinf soatlari o'tkazilishi kerak;
- mahallalarda psixologlar va faollar ishtirokida seminarlar tashkil qilish, jabrlanuvchilarni aniqlash va yo'naltirish bo'yicha dasturlar bo'lishi lozim;
- omnaviy axborot vositalari – televizor, ijtimoiy tarmoqlar va matbuotda zo'ravonlikka qarshi ijtimoiy rolklar, maqolalar, intervylar va kampaniyalar orqali ommani ogohlilikka chorlash.

Zo'ravonlik faqat oilaning ichki muammosi emas, balki jamiyatning umumiy sog'lig'iga ta'sir qiluvchi holat ekanini hammaga anglatish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oiladagi zo'ravonlik zamonaviy jamiyat uchun eng xavotirli va ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi muammolardan biri sifatida e'tirof etiladi. U faqat oilaning ichki ziddiyatlari yoki vaqtinchalik nizolarining mahsuli emas, balki shaxsiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy omillarning murakkab o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Ushbu zo'ravonlik turli shakllarda – jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy ko'rinishda namoyon bo'lib, nafaqat jabrlanuvchi, balki butun oilaviy muhit va jamiyatning salomatligiga chuqr salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maqolada ko'rsatib o'tilganidek, oilaviy zo'ravonlikning oqibatlari ko'p qirrali va uzoq davom etuvchi bo'lib, ular ruhiy salomatlikning buzilishi, bolalarda psixologik va ijtimoiy moslashuv muammolari, shaxslararo munosabatlarda ishonchning yo'qolishi hamda keyingi avlodlarda ham zo'ravonlik naqshini davom ettirish xavfini oshiradi. Ayniqsa, bolalikda zo'ravonlik guvohiga aylangan farzandlar o'zining kelajak oиласида ham shunga o'xshash xatti-harakatlarni takrorlashi ehtimoli yuqoriligi bilan xavfli hisoblanadi. Shu sababli, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashda faqat huquqiy mexanizmlarni ishga solish yetarli emas. Mavjud muammoni chuqr psixologik yondashuvlar yordamida tahlil qilish va hal etish zarurati mavjud. Kognitiv-hulqiy terapiya, oilaviy psixoterapiya, psiko-ta'limi dasturlar hamda reabilitatsiya va maslahat markazlari orqali jabrlanuvchilarga ko'mak berish va zo'ravonlikni sodir etayotgan shaxslarni ijtimoiylashtirish muhim yo'nalishlardandir.

Bundan tashqari, jamiyatda bu boradagi xabardorlik va ogohlilik darajasini oshirish, gender tengligini mustahkamlash, sog'lom muloqot madaniyatini shakllantirish va har bir fuqaroning zo'ravonlikka nisbatan "nol toqat" prinsipiiga amal qilishi orqali oilaviy muhitda tinchlik va totuvlikka erishish mumkin. Demak, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurash – bu har bir fuqaroning, har bir mutaxassisning, har bir davlat va nodavlat tashkilotining mas'uliyatini talab qiluvchi, murakkab, ammo hal etilishi mumkin bo'lgan muammodir. Uning ildizini tan olish, asosiy sabablarini tahlil qilish va psixologik yondashuvlar asosida yechim ishlab chiqish orqaligina biz sog'lom, baxtli va zo'ravonlikdan holi oilaviy muhitni barpo eta olamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonova, M. (2021). Oila va ijtimoiy munosabatlar psixologiyasi.
2. Sattarova, D.E. (2020). "Oilaviy muammolar va ularni psixologik yondashuvlar orqali hal etish". // Psixologiya va hayot, №2, 45–52-betlar.
3. Karimova, G.T. (2019). Psixologik maslahat va psixoterapiya asoslari.
4. World Health Organization (WHO). (2021). Violence Against Women: Prevalence Estimates 2018. Geneva: WHO Publications. <https://www.who.int/publications/i/item/violence-against-women-prevalence-estimates>
5. American Psychological Association (APA). (2020). Intimate Partner Violence and Mental Health. <https://www.apa.org/topics/violence/partner>
6. Bandura, A. (1973). Aggression: A Social Learning Analysis. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
7. Walker, L.E. (1979). The Battered Woman. New York: Harper & Row.
8. Krug, E.G., Dahlberg, L.L., Mercy, J.A., Zwi, A.B., & Lozano, R. (Eds.). (2002). World Report on Violence and Health. Geneva: World Health Organization.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
 - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
 - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03** Maxsus pedagogika
 - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07** Ta'limda menejment
 - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00** Tarix fanlari
 - 19.00.00** Psixologiya fanlari
 - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00** Kimyo fanlari
 - 03.00.00** Biologiya fanlari
 - 09.00.00** Falsafa fanlari
 - 10.00.00** Filologiya fanlari
 - 11.00.00** Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.